

# **2024/2025-o'quv yili kuzgi semestridagi fanlar bo'yicha yakuniy nazoratlar davom etmoqda.**

0'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutida 2024/2025-o'quv yili kuzgi semestridagi fanlar bo'yicha yakuniy nazoratlar davom etmoqda.

□□Bugun institut rektori, professor Nodirbek Sayfullayev "Ashula va raqs" hamda "Folklor va etnografiya" ta'lif yo'naliishilarida o'tkazilgan yakuniy nazoratlarni kuzatib bordi.

Rektor talaba-yoshlar va professor-o'qituvchilar bilan muloqot qilar ekan, bugun yurtimizda san'at va madaniyat yuksak darajada rivojlanib borayotgani, o'z navbatida, bu yangilanishlar soha xodimlari oldiga ham yangi vazifalar qo'yayotganini, professor-o'qituvchilar ham talabalarga ushbu mezonlar asosida tahsil berib, ularning yuksak saviyali ijodkor bo'lib shakllanishi uchun zamin yaratishi lozimligini aytib o'tdi.

Shu bilan birga, san'atkor birinchi navbatda insoniylik jihatdan boshqalarga o'rnak bo'lishi, bugun bo'lajak san'atkorlarga ta'lif berar ekanmiz, ularga odob-axloq hamda sahna madaniyatini ham o'rgatib borishimiz lozimligini, zarur bo'lsa bu borada semenarlar tashkil etish kerakligini aytib o'tdi. Shuningdek, talabalarni amaliyat bilan uyg'unligini kuchaytirish, dual ta'limgi yo'lga qo'yish borasida ham taklif va tavsiyalarini berib o'tdi.

Ta'kidlash joizki, yakuniy nazoratlarda ustozlar tomonidan ayni damda imtihon topshirayotgan talabalarning yutuqlari e'tirof etilishi barobarida, kelgusi ijodi uchun muhim bo'lgan

ko'rsatmalar ham berib o'tilmoqda.

Shuningdek, jarayonda Nodirbek Sayfullayev institutda faoliyat yuritayotgan ovoz yozish studiyasidagi ijodiy jarayon bilan ham tanishdi. Studiyada mualliflik qo'shiqlarini yozib olayotgan «Folklor va etnografiya» ta'lif yo'nalishi 3-bosqich talabasi Bunyodjon Xabibullayev bilan ham suhbatlashdi.

Aytish o'rinniki, ushbu talaba "Rektor va yoshlar uchrashuvi"da mualliflik qo'shiqlarini ushbu studiyada yozish uchun ruxsat so'ragan hamda ushbu taklif qo'llab-quvvatlangan edi.

---

## **Nodirbek Sayfullayev institutning Nukus filialiga tashrif buyurdi**

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti rektori, professor Nodirbek Sayfullayev institutning Nukus filialiga tashrif buyurdi hamda filial professor-o'qituvchilari ishtirokida 2024-yil yakunlari hamda 2025-yilda o'quv-uslubiy, ilmiy-tadqiqot va ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligi hamda ta'lim sifatini yangi bosqichga olib chiqish bo'yicha amalga oshirilishi rejalashtirilgan vazifalarga bag'ishlangan kengaytirilgan yig'ilish o'tkazdi.

✓ Yig'ilish avvalida rektor hamda filial direktori Amanjol Ayapovlar filialda faoliyat yuritayotgan professor-o'qituvchilar – Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha direktor o'rinosari Kuanishbay Yusupov, Ta'lim sifatini nazaroti bo'limi boshlig'i Kuani'shbay Kalekeev, "Vokal" kafedrasi o'qituvchisi Nurnazar Kallibekov hamda "Madaniyat

faoliyati" kafedrasi o'qituvchisi Gulbaxar Yeshbayevalarga Oliy attestatiya komissiyasining dotsentlik guvohnomasini topshirib, ularga ilmiy izlanishlarida ulkan zafarlar tiladi.

Shuningdek, Nodirbek Sayfullayev qoraqalpoq va o'zbek xalqlari azal azaldan bir tan-u bir jon bo'lib yashab kelayotgani, ikki xalqning madaniyati ham o'zaro uyg'un ekanligini, qoraqalpoq san'ati yurtimiz va jahonda ham o'z o'rniiga ega ekanligini alohida qayd etdi.

Institut professor-o'qituvchilarining filialda tashkil etilgan mahorat darslari kelgusi semestrda ham davom etishi, bundan ko'zlangan asosiy maqsad yurtimizda san'at va madaniyat ta'limini rivojlantirish ekanligini hamda kelgusida bu loyiha davomli bo'lishini, qamrovi va amalga oshiriladigan ish ko'lami kengayishini, kelajakda institutda tashkil etiladigan festivallar va yirik tadbirlarda albatta, filialdan ham vakillar ishtirok etishini aytib, Muhtaram Yurtboshimiz tomonidan yaratilayotgan imkoniyatlardan foydalanib, san'at va madaniyat sohasini rivoji uchun xizmat qilish sohada faoliyat olib borayotgan har bir xodimning burchi va vazifasi ekanligini ta'kidladi.

Yig'ilishda filial faoliyatini yanada takomillashtirish, o'quv-uslubiy, ma'naviy-ma'rifiy ilmiy-ijodiy jarayonlarni yanada jadallashtirish masalalari atroflicha muhokama qilindi. Kelgusida birgalikda amalga oshiriladigan ishlar belgilab olindi.

□□Tashrif davomida ayni paytda filialda davom etayotgan 2024/2025-o'quv yili kuzgi semestridagi fanlar bo'yicha yakuniy nazoratlarni ham kuzatib, tegishli taklif va tavsiyalarini berib o'tdi.

---

# **“Jaholatga qarshi ma’rifat” mavzusida davra suhbatি bo’lib o’tdi.**

Bugungi kunda yoshlar turli xil ma'lumotlar oqimiga duch kelmoqda. Internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali ularga turli xil g'oyalalar, fikrlar va ma'lumotlar taqdim etiladi. Bu oqim ichida ba'zi g'oyalalar yot, zararli va jamiyat uchun xavfli bo'lishi mumkin.

□□Yoshlarni yot g'oyalardan asrash – bu jamiyatning muhim vazifasidir. Ayni shu maqsadda bugun O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutida Din ishlari bo'yicha qo'mita vakili Shoxruh Jumayev ishtirokida “Jaholatga qarshi ma’rifat” mavzusida davra suhbatি bo’lib o’tdi.

✓ Shoxruh Jumayev bugungi axborot texnologiyalari rivojlangan bir davrda axborotni saralash hamda turli xil yolg'on xabar bilan rost xabarni ajratish kabi masalalarda qanday yo'l tutish lozimligi haqida so'z yurtidi.

Davra suhbatida ta'kidlanganidek, bugun ma'lumotlar, ayniqsa, diniy ma'lumotlarni faqatgina rasmiy sahifalardan olish lozim.

□□Shuningdek, tadbir yakunida mutaxassis talabalarni qiziqtirgan barcha savollariga ham batafsil javob berib o’tdi.

---

## **Institut rektori, professor**

# **Nodirbek Sayfullayev yakuniy nazoratlarni bevosita kuzatib bordi.**

Avval xabar beranimizdek, O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutida 2024/2025-o'quv yili kuzgi semestridagi fanlar bo'yicha yakuniy nazoratlar davom etmoqda.

○○Bugun ushbu jarayonlarni institut rektori, professor Nodirbek Sayfullayev bevosita kuzatib bordi.

Ta'kidlash joizki, ustozlar tomonidan ayni damda imtihon topshirayotgan talabalarining yutuqlari e'tirof etilishi barobarida, kelgusi ijodi uchun muhim bo'lgan ko'rsatma va tavsiyalar ham berib o'tilmoqda.

Rektor talaba-yoshlar va professor o'qituvchilar bilan muloqot qilar ekan, bugun yurtimizda san'at va madaniyat rivojiga berilayotgan e'tibor va g'amxo'rlik yuksak darajada ekanligini qayd etib, oldimizda turgan eng muhim vazifa bu imkoniyatlardan unumli foydalanish hamda yurtimiz san'ati rivojiga hissa qo'shish ekanligini ta'kidladi.

Imtihon jarayonlari haqida fikr bildirar ekan, institutda qabul jarayonlaridan boshlab barcha jabhalarda adolat va shaffoflik yagona va o'zgarmas tamoyil ekanligini, jumladan, yakuniy nazoratlar ham shu asosda tashkil etilayotganini, ta'magirlik va tanish bilishchilik kabi holatlariga yo'l qo'yilmasligini aytib o'tdi hamda bugun imtihon topshirayotgan yoshlar keljakda san'atimizning buyuk darg'alariga munosib izdosh bo'lishlariga umid bildirdi.

Shuningdek, jarayonda Nodirbek Sayfullayev ayrim kafedralar faoliyati bilan ham tanishdi hamda kafedra a'zolari bilan kafedraning bugungi faoliyati va takomillashtirish masalalarini muhokama qildi va tegishli taklif va

tavsiyalarini berib o'tdi.

---

# **Institut Kengashining navbatdan tashqari yig'ilishi bo'lib o'tdi.**

Bugun O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti rektori, professor Nodirbek Sayfullayev rahbarligida institut Kengashining navbatdan tashqari yig'ilishi bo'lib o'tdi.

Kengash kun tartibida ilmiy unvon olish uchun Oliy attestatsiya komissiyasiga yuborilgan hujjatlarda aniqlangan kamchiliklar va ularni bartaraf etish bo'yicha belgilangan chora-tadbirlar, ilmiy unvon olish uchun Oliy attestatsiya komissiyasiga hujjatlarni yuborish, ilmiy tadqiqot ishlarining samaradorligini takomillashtirish, "San'atshunoslik va madaniyatshunoslik" kafedrasi tomonidan tayyorlangan grand loyihani Innovatsion rivojlantirish agentligiga yuborish kabi institut hayotiga aloqador bir qator masalalar muhokama qilindi.

□□Kun tartibidagi masalalar yuzasidan mutasaddilarning axborotlari tinglandi hamda barcha mas'ullarga tegishli topshiriqlar berildi.

Kengash qaroriga asosan institut axborot resurs markazida dissertatsiya fondini tashkil etilishi, dissertatsiyalarni ro'yxatga olish qayd daftari yuritilishi, tadqiqotchilarga dissertatsiyani ro'yxatga olinganligi yuzasidan ma'lumotnoma berilishi, professor-o'qituvchilarning ilmiy unvon uchun tayyorlagan hujjatlari kafedra majlisida tahliliy muhokamadan o'tkazilishi, kafedra muhokamasidan o'tgan hujjatlar kafedra

mudirining tavsiyanomasi bilan institut Kengashida ko'rib chiqish uchun taqdim etilishi, hujjatlarning xatosiz hamda sifatli (imlo va texnik xatolarsiz, Nizom talablari asosida) tayyorlanishi uchun kafedra mudirlarining mas'ul ekanligi, kafedra mudirlari, fakultet dekanlari tomonidan imzolanib, tasdiqlangan hujjatlarda kamchiliklar aniqlangan holatlarda institut Kengashiga tanqidiy muhokama uchun qo'yilishi, ilmiy unvonlar uchun taqdim etilayotgan maqolalar, adabiyotlar antiplagiat dasturidan o'tkazilishi hamda ma'lumotnomasi bilan birga topshirilishi, professor-o'qituvchilar xorijiy tillarda chop etilgan maqolalarni o'zbek tiliga tarjima qilib, o'z muallifligi ostida va bir maqolani turli jurnallarda chop ettirmasligi, sun'iy intellekt dasturi asosida maqolalar tayyorlanishiga va antiplagiat foizi ko'tarilishiga yo'l qo'ymasligi kerakligi belgilandi.

---

## **"Xavfsiz va sog'lom poytaxt" shiori ostida navbatdagi uchrashuv o'tkazildi**

Bugun O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutida Mirzo Ulug'bek tumani Ichki ishlar organlari faoliyatini muvofiqlashtirish boshqarmasi boshlig'i Sardor Mirzaramov hamda o'rinosari Bahodir Yormatov bilan uchrashuv tashkil etildi.

"Xavfsiz va sog'lom poytaxt" shiori ostida bo'lib o'tgan ushbu uchrashuvda asosiy e'tibor bugungi kunda dolzarb bo'lib turgan giyohvandlik va psixotrop moddalarning noqonuniy aylanishi hamda kiber jinoyatlarga qarshi kurash mavzulariga qaratildi.

Giyohvandlik va psixotrop moddalarning noqonuniy aylanishi –

bu jamiyat uchun jiddiy xavf tug'diruvchi muammo bo'lib, inson salomatligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa, yosh avlodni bunday salbiy oqibatlardan himoya qilish, bilib bilmay giyohvandlik ko'chasiga kirib qolishiga yo'l qo'ymaslik har bir insondan ogohlilikni talab etadi. Shuning uchun, giyohvandlik va psixotrop moddalarning noqonuniy aylanishiga qarshi kurashish jamiyatning eng muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

Kiberjinoyatlarga qarshi kurash – bu zamonaviy dunyoda tobora muhim ahamiyat kasb etayotgan masaladir. Internetning keng tarqalishi va texnologiyalarning rivojlanishi bilan kiberjinoyatchilikning turlari ham ko'paymoqda. Kiberjinoyatlarga qarshi kurashda shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish, kiberxavfsizlikni mustahkamlash, kiberjinoyatchilikni aniqlash va unga qarshi choralar ko'rish, shuningdek, kiberjinoyatlar to'g'risida xabardorlikni oshirish muhim ahamiyatga ega. Davlat organlari va shaxslarning birgalikdagi sa'y-harakatlari kiberjinoyatlarga qarshi kurashda muhim rol o'ynaydi.

Uchrashuvda shu kabi masalar haqida so'z bordi. Shuningdek, ishtirokchilarini qiziqtirgan barcha savollarga IIB xodimlari tomonidan batafsil javob berildi.

---

## **“Giyohvandlik va psixotrop moddalarning noqonuniy aylanishiga qarshi kurashish”**

# **hamda “Kiber jinoyatlarga qarshi kurash” mavzularida davra suhbatি tashkil etildi.**

Bugun O’zbekiston davlat san’at va madaniyat institutida “Xavfsiz va sog’lom poytaxt” shiori ostida “Giyohvandlik va psixotrop moddalarning noqonuniy aylanishiga qarshi kurashish” hamda “Kiber jinoyatlarga qarshi kurash” mavzularida davra suhbatি tashkil etildi.

Davra suhbatida Ichki ishlar vazirligi akademiyasi kafedra boshlig’i, yuridik fanlari doktori, professor Maqsud Qalandarov, kafedra katta o’qituvchisi Shohruh Qo’shboqov, magistratura tinglovchilari podpolkovnik Eldor Rahmatov va podpolkovnik Jonibek Samandarov, institut profilaktika katta inspektori Fayzulla Akbarovlar ishtirok etishdi.

Dastlab bugungi kunda eng dolzarb mavzulardan biri – giyohvandlik va psixotrop moddalarning noqonuniy aylanishi, ularga qaramlikdan saqlanish mavzularida so’z bordi. Tadbirda ta’kidlanganidek, yoshlar o’rtasida sog’lom turmush tarzini targ’ib qilish, ularni giyohvandlik, psixotrop moddalarga ruju qo’yishlarini oldini olish har qachongidan ham dolzarb muammoga aylanib bormoqda. Zeroki, so’nggi yillarda yangi turdagи sintetik giyohvandlik vositalari va kuchli ta’sir qiluvchi moddalar paydo bo’layotganligi, ular inson omilisiz internetning ijtimoiy tarmoqlaridan foydalangan holda aholi, ayniqsa yoshlar orasida oson tarqatilayotganligi holatlari kuzatilmоqda.

Ichki ishlar organlari xodimlari tomonidan bugun mamalakatimizda giyohvandlikni oldini olish, ayniqsa, yosh avlodni bu kabi illatlar ta’siridan asrash bo’yicha ko’rilayotgan choralar, O’zbekiston Respublikasi Prezidentining joriy yil 6-maydagi “O’zbekiston Respublikasida

giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning noqonuniy aylanmasiga chek qo'yish orqali ularning aholi salomatligi va mamlakatimiz genofondiga salbiy ta'sirini bartaraf etish strategik chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmonining mazmun-mohiyati va ahamiyati to'g'risida batafsil ma'lumot berib o'tildi.

Davra suhbatining ikkinchi qismida esa tobora avj olayotgan jinoyatlardan biri Kiber jinoyatlarga qarshi kurash haqida suhbat bo'lib o'tdi hamda talabalarga bugungi kunda kiberjinoyatlarning eng ko'p uchrayotgan turlari hamda undan samarali himoyalanish usullari, shu bilan birga, kiberjinoyat qurbaniga aylanganda qanday yo'l tutish kabi masalalarda tushuncha berib o'tildi.

Shuningdek, talabalarning mavzular yuzasidan barcha savollariga mutaxassis tomonidan batafsil javoblar berildi.

---

## **"Abdurahim tasvirdagi hujjatli filmi Ismoilov: taqdirlar" bo'lib o'tdi.**

"Renessans" kino uyida O'zbekiston Respublikasi san'at arbobi, Davlat mukofoti sovrindori, O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti professori Abdurahim Ismoilov bilan ijodiy uchrashuv hamda Madaniyat vazirligi huzuridagi Kinematografiya agentligi buyurtmasiga binoan O'zbekiston Kinoarboblari ijodiy uyushmasi tomonidan "Vatan timsollari" rukni ostida suratga olingan "Abdurahim Ismoilov: tasvirdagi taqdirlar" hujjatli filmi namoyishi bo'lib o'tdi.

Kechada film qahramonining yaqinlari, ko'p sonli kinoijodkorlar, talaba yoshlar, ommaviy axborot vositalari xodimlari bilan bir qatorda, Abdurahim Ismoilov uzoq yillardan yillardan buyon ustoz sifatida faoliyat yuritib kelayotgan O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti vakillari ham ishtirok etdi hamda ustozga samimiy tilaklarini bildirib o'tishdi.

Ma'lumot o'rnidagi, Ismoilov Abdurahim Isroilovich 1942-yilda Toshkenda tavvallud topgan. U dastlab Butunittifoq davlat kinematografiya institutining (VGIK) kinooperatorlik bo'limini, keyinchalik A.Ostrovskiy nomidagi Toshkent teatr va rassomlik institutining rejissyorlik bo'limini tamomlagan.

Ijodiy faoliyati davomida O'zbekiston ilmiy-ommabop va hujjatli filmlar studiyasida, 1970-yildan "O'zbekfilm" kinostudiyasida kinooperator sifatida mehnat qilgan.

Yuzdan ortiq badiiy va hujjatli filmlarni O'zbekiston va chet ellik ijodkorlar bilan hamkorlikda suratga olgan. Jumladan, ijdokor "Chegara shu yerda tugaydi" (3 qisqli), "O'zganining baxti", "Kelin kuzatish", "Ko'zlarim yo'lingda", "Beshinchi raqamli lager" (5 qisqli, Turkiya bilan hamkorlikda), "Ehtiros qurbanlari", "Kichkina tabib", "Vatan" "Osmondagি bolalar", "Qo'rg'oshin" va boshqa ko'plab filmlarda operator sifatida faoliyat yuritgan.

Hujjatli filmda ham ijodkorning hayoti ijodi, kino san'atiga qo'shgan hissasi haqida hikoya qilinadi.